

Ingliz va o'zbek tillarida temporal adverbiallarning struktur semantik tipologiyasi

Imamov Navruz Pattaqulovich

*Samarqand davlat chet tillar instituti "Ingliz filologiyasi"
kafedrasi mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida temporal adverbiallarning struktur va semantik xususiyatlarining ilmiy-nazariy jihatlari haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlari: *aspectual ravishlar, ibora, aktionsart, aspektual ma'no, kuzatuv nuqta, semantik komponent, temporallik.*

Kirish

Bugungi kunga qadar ko'plab tilshunoslar tilshunoslikda aspektuallik hamda temporal ravishlar haqida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Tilda aspektual ma'nolarni beruvchi ravishlar ya'ni yuqorida qayd etganimizdek, aspektual ravishlar, ko'pgina holatlarda ko'makchi vositalar sifatida qayt etiladi. Mazkur ko'makchilar aspektual ma'no ifodalanishida bosh, asosiy ma'noni emas, balki aspektual semantikani yuzaga kelishida qandaydir ko'makchi ma'no beruvchi vazifani bajaradi. Ko'makchilar yoki ravishlar ko'pgina holatlarda dinamik xususiyatli fe'llari bilan birga kelganda, yoki harakatni ko'chish ma'nosini ifodalaganda fe'l bilan ifodalangan maksimal xususiyatlarini namoish etishi mumkin. Bunda harakatning kechimi, harakatni bir nuqtadan boshqa nuqtaga bo'lgan yo'nalishi, harakatni jarayoni, harakatni intensivligi, harakatni takroriyliigi, harakatni yakuniy nuqtaga etganligi kabi ma'nolarga aniqlik kiritishda qo'llaniladi. Shu sabab ba'zi tilshunoslar aspektual ravishlarni ko'makchilar ya'ni "adjunct" atamasi bilan yuritadi. H.J.Verkuyl qayd etishicha ko'makchilar aspektlar adverbiallar ravishlar vazifasida kelganda ular o'rtasidagi birikuv bog'lanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'makchilar o'zlari birikadigan iboralar yoki fe'llarga qo'shimcha ma'no beradi.

Aspektga birikadigan argument ya'ni to'ldiruvchi yoki egani bundan tashqari aspektual adverbiallarni yoki ravishlarni birikuvini funksional kategoriyalar qatoriga qo'shadi. Bunda aspektual ma'noni anglatadigan fe'l funksional jihatdan boshqaruvchi vazifani bajaradi. Muallifning qayd etishicha ushbu birikmalardagi morfologik shakillanish leksik xususiyatlardan tashqariga chiqa olmaydi. Yoki ular erkin holda sintaktik birikuvni hosil qilishmaydi. Shuning uchun ham aspektual ravishlar ishtirok etadigan kontekstda biror-bir birlik sintaktik vazifasi va leksik mazmuni hamkorlikda o'rganiladi (H.J.Verkuyl 1993). Bunda sintaktik vazifa gapdagi ishtirok etadigan leksik birliklarning derivatsion xususiyatiga grammatik jihatdan aniqlik kiritishga xizmat qiladi. Bu esa aspektual xususiyatni tekshirish imkonini beradi. Ko'rinadiki, mazkur holatlarda fe'lning aspektual xususiyatini aniqlash uchun fe'lga birikadigan barcha til elementlari jumladan ravishlarning semantikasini ham e'tibor ga olish muhim sanaladi. Shu nuqtai nazardan biror aspektual mazmunga ta'sir etadigan ravishning fe'l bilan birikishini aspektual fraza sifatida qayt etish maqsadga muoffiq, deb uylaymiz.

Georgiya Panitsa adverbial va adverb o'rtasidagi farqni aniqlashga harakat qiladi. Muallifning fikricha adverbiallar adverblarga nisbatan kengroq mazmunga ega. Adverb ya'ni ravishlar adverbiallarning alohida kategoriyasi sanaladi. Adverbiallar esa sintaktik kategoriya bo'lib barcha grammatik



kategoriyalarga ta'luqli sanaladi, hamda ba'zi adverbiallar fraza funksiyasini hosil qiladi. Adverbial bir so'z bilan aytganda fraza yoki gapning bir bulagini hosil qiladi. U o'z ichiga fe'lli frazani hamda gapdagi qo'shimcha ma'lumotni birlashtirgan fraza sifatida namoyon bo'ladi. G.Panitsaning qo'yidagi misollarni keltirib o'tadi. *Yesterday, now, when* kabilar adverb ya'ni ravish. *When Marry came*. Close (ya'ni gap). *In a hour yoki for two hours* predlogli fraza. *Last year at noon* kabilar esa o'tli fraza termini yoki atamalarini bilan qullanadi. Ularning hammasi adverbiallar birikishi natijasida hosil bulishi esa adverbial sifatida qayt etiladi. Shu nuqtai nazardan aspektual ma'noni ifodalaydigan predlogli frazalar, o'tli frazalar ravishlar ta'siri natijasida ifodalanadigan aspektual ma'nolar aspektual fraza atamasi bilan yuritiladi. Jumladan, Georgiya Panitsa tomoidan taklif etiladigan aspektual adverbiallar tushunchasi esa oxiri sintaktik kategoriya bo'lib alohida semantik kategoriyaga mansub sanaladi. Ma'lumki, aspektual tadqiqotlarda zamon tashqi temporal kategoriya, aspekt esa ichki temporal xususiyat sifatida, shuningdek aksionsart (aktionsart) ya'ni harakat tarzi voqeliklarni kechimini tavsiflovchi tushunchalari alohida farqlanadi. Shu nuqtai nazardan aksionsart voqealanishini ifodalovchi o'ziga xos ma'lum adverbiallar ham mavjud. Aksionsart (aktionsart) ya'ni harakat tarsi har bir tahlilga tortilgan tilning strukturaviy analitek shuningdek infleksion xususiyatlariga bog'liq holda talqin qilinadi. Jumladan, sintetik tillarda aksionsart semantikasi kop'roq derivatsion xususiyatga ega bo'lib aspektual ma'nolarni leksikalizatsiyasi natijasida yuzaga keladi. Bunda aksionsart ma'nosi turli adverbiallardan tashqari fe'lning leksik ma'nosiga ham asoslanadi. Analitik shaklli tillarda esa bu jarayon fe'lning leksik semantik ma'nosidan tashqari obekt ya'ni to'ldiruvchi, subekt ega umumiy lashma holda bular argument deb ataladi. Argument hamda gap doirasidagi boshqa adverbiallar ma'nosini umumlashmasidan iborat bo'ladi. Analitik tizimli fe'llarda aksionsart ma'nolari ma'lum leksik birliklar yordamida yuzaga keladi. Misol uchun *again and again, often, twice, seldom, regularly* kabi ravishlar iterativ aksionsart xususiyatini ifodalash uchun qo'llaniladi.

Masalan: *He is reading again and again.*

I have visited twice.

He seldom visits his uncle va boshqalar

Sintetik tillarda bu kabi aksionsart ya'ni harakat tarzi ma'nosi shu kabi vaqt yoki temporal ravishlardan tashqari fe'lga qo'shiladigan qo'shimchalar yordamida ham amalga oshishi mumkin. O'zbek tilida esa bu kabi harakat tarzi ma'nosi ko'pgina holatlarda ko'makchi fe'l va kumakchi fe'lga qo'shiladigan qo'shimcha hamda etakchi fe'lning leksik ma'nosidan kelib chiqqan holda hosil bo'ladi.

Misol uchun iterativ aksionsart ma'nosi ya'ni harakat tarzi ma'nosi ko'proq chegaralangan xususiyatli etakchi fe'l hamda turmoq kumakchi fe'li birikishi natijasida hosil bo'ladi.

Temporal birliklar voqea-hodisalarni zamon va aspekt bilan bog'lovchi ya'ni voqea-hodisalarni zamon joylashuvi, vaqt kechimida ifodalanishini ta'minlovchi asosiy lisoniy vosita hisoblanadi. Temporal vositalar yordamida har qanday sodir bo'ladigan voqea-hodisalarni vaqt kechimiga joylashtirilishini ma'lumot sifatida qayt etishimiz lozim. Bu zamon-makon, voqea-hodisa, payt, nutq vaziyati, voqeylik, o'tmish-kelajak kabi xronotop tarkiblarni shakillantiradi. Temporal ravishlar qayd etilgan xronotop tarkibni alohida xususiyatlariga aniqlik kirituvchi, diyektik vazifani bajaradi.

Литература:

1. G.Panitsa *Aspects of Aspect: The acquisition of viewpoint and situation aspect in Modern Greek*, University college London. 2010.
2. Z.Vendler *Linguistics in philosophy. (Verbs and times)*. - New-York: Cornell university press, 1967. -P. 97-121.



3. *H.J.Verkuyl A theory of aspectuality: the interaction between temporal and temporal structure. - Cambridge University Press, 1993.*
4. *B.Comrie Aspect: An Introduction to the study of verbal aspect and related problems. -Cambridge University Press, 1976.*
5. *Imamov N.P “Semantics of perfective and imperfective aspect” nomli maqolasi, Xorazm 2024*
6. *Imamov N.P “Ingliz va o‘zbek tillarida durativlikning kontekstda ifodalanishi” nomli maqolasi, O‘zMU XABARNOMASI; Toshkent 2024.*

